

MUSTAQILLIK YILLARID BARKAMOL AVLOD TARBIYASINING IJTIMOII PEDAGOGIK ASOSLARI

Sayfullayev Abdirayim Narzillayevich

Osiyo xalqaro universiteti pedagogika,
psixologiya yunalishi magistri

<https://doi.org/10.5281/zenodo.12730282>

Annotatsiya: Mustaqillik yillarida pedagog kadrlarni tayyorlashning yangi tizimi ishlab chiqilib, uzluksiz ta'limda o'qitish sifati va samaradorligini bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy, ma'naviy-axloqiy tayyorgarligi belgilab berishi haqidagi shu bilan birga malakali pedagoglarni tayyorlashda pedagogik va nopedagogik oliy ta'lim muassasalari talabalarini pedagogik bilimlar bilan qurollantirish, ularni yosh avlodni tarbiyalash, unga ta'lim berish jarayoni haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Pedagog, individual, "barkamol shaxs", "barkamol inson", "kamolga etgan", "bekam-u ko'st", "yetuk", "to'kis", "mukammal", shaxsni aqliy, ma'naviy-axloqiy, hissiy-estetik.

СОЦИАЛЬНО-ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ВОСПИТАНИЯ ЗРЕЛОГО ПОКОЛЕНИЯ ПЕРЕД ГОДАМИ НЕЗАВИСИМОСТИ

Сайфуллаев Абдираим Нарзиллаевич

Степень магистра педагогики, психологии, Азиатский
международный университет.

Аннотация: В годы независимости была разработана новая система подготовки педагогических кадров и одновременно оснащения студентов педагогических и непедagogических вузов педагогическими знаниями при подготовке квалифицированных педагогов, что определяет качество и эффективность преподавания в непрерывном образовании – это процесс образования.

Ключевые слова: Педагог, личность, «совершенный человек», «совершенный человек», «зрелая», «гладкая», «зрелая», «полноценная», «совершенная», интеллектуальная, духовно-нравственная, эмоционально-эстетическая личность.

SOCIO-PEDAGOGICAL FOUNDATIONS OF EDUCATION OF A MATURE GENERATION BEFORE THE YEARS OF INDEPENDENCE

Sayfullaev Abdiraim Narzillaevich

Master's degree in pedagogy, psychology, Asian International
University.

Abstract: During the years of independence, a new system for training teaching staff was developed and at the same time equipping students of pedagogical and non-teaching universities with pedagogical knowledge in the preparation of qualified teachers, which determines the quality and effectiveness of teaching in lifelong education - this is the educational process.

Key words: Teacher, personality, "perfect person", "perfect person", "mature", "smooth", "mature", "full-fledged", "perfect", intellectual, spiritual-moral, emotional-aesthetic personality.

Inson shaxsidagi ijobiy fazilatlar avlodlardan avlodlarga o'tishi, e'zozlanishi bilan qadriyatga aylanadi. Qadriyatlar o'z navbatida inson aqli, tafakkuri, xarakteri, tuyg'u

hissini shakllantiradi. Shu bilan birgalikda ma'naviyatning jamiyatdagi yetakchi g'oyalarga ham bog'liqligi anglashiladi. Jamiyatimizda kelajagi buyuk huquqiy-demokratik davlat yaratish davrning yetakchi g'oyasi sanaladiki, buyuk kelajak yaratish uchun komil avlodni, ma'naviy yetuk, axloqan yuksak, ruhan va jismonan sog'lom avlodni tarbiyalash hayotiy ehtiyoj hisoblanadi. Abu Nasr Forobiy "Har bir inson tabiatan shunday yaratilganki, u yashash va oliy darajadagi yetuklikka erishmoq uchun ko'p narsalarga muhtoj bo'ladi, yolg'iz o'zi bunday narsalarni qo'lga kiritmaydi, ularga ega bo'lish uchun insonlar jamoasiga ehtiyoj tug'iladi" deb yozadi.

Shaxsning rivojlanishi va shakllanishiga ta'sir nuqtayi nazaridan tarbiya doimo maqsadga yo'naltirilgan bo'lib, birinchi navbatda, aniq maqsadga qaratilgan jamiyatning faoliyatidir. Bunda jamiyat o'zida mavjud bo'lgan barcha imkoniyat hamda vositalardan foydalanadi. Tarbiya – inson shaxsining rivojlanishi va shakllanishiga kuchli ta'sir etuvchi muhim omil bo'lsa-da, biroq bu jarayonda yana qator omillar, jumladan, muhit ta'siri va irsiyat ham muhim ahamiyat kasb etadi.

"Shaxsning o'z-o'zini rivojlantirishi tarbiyaning asosiy mohiyati bo'lib qoladi", – deydi psixolog olim A.V.Petrovskiy. B.T.Lixachev, R.G.Gurova shaxs tarbiyasida uning ongli ravishda bilim olishga intilishi, bu borada o'ziga xos ko'nikma, malaka va mahoratga ega bo'lishi kabi muammolarni ilgari sursa, taniqli psixolog olim E.G'oziyev shaxs tarbiyasida milliy va umuminsoniy qadriyatlarga tayanish, shaxsni har tomonlama rivojlantirishda mehnat tarbiyasi, fuqarolik, vatanparvarlik, axloq masalalarida an'anaviy ta'riflardan chetlanib, ularni inson hayotini o'zgartiruvchi, shaxsning o'z-o'zini rivojlantiruvchi vosita sifatida e'tirof etishni taklif qiladi.

Inson shaxs darajasiga etishi uchun uning ongi, faoliyati, o'z-o'zini anglashidan iborat ichki yo'naltiruvchi mexanizmi muhim ahamiyatga ega. Insonning shaxs sifatida rivojlanishi uning qiziqishi, xarakteri, qobiliyati, aqliy rivojlanganligi, ehtiyojlari, mehnat faoliyatiga munosabati bilan belgilanadi. Ana shu xususiyatlar rivojlanib, insonning ijtimoiy voqelik, mehnat, kishilar, jamiyatga bo'lgan munosabati ma'lum bosqichga etgandagina **u barkamol shaxs** darajasiga ko'tariladi. "O'zbek tilining izohli lug'ati"da "**barkamol**" tushunchasi lug'aviy jihatdan "**kamolga etgan**", "**bekam-u ko'st**", "**yetuk**", "**to'kis**", "**mukammal**" degan ma'nolarni anglatishi ta'kidlanadi.

Garchi bugungi kunda ham tarbiyaning eng oliy maqsadi barkamol shaxsni shakllantirishdan iboratligi e'tirof etilayotgan bo'lsa-da, biroq "**barkamol shaxs**", "**barkamol inson**" tushunchalari hali hatto pedagogik lug'atlardan ham o'rin olmaganligi achinarli hol, albatta.

"**Komil inson**" tushunchasiga taniqli adabiyotshunos olim N.Komilov Aziziddin Nasafiy, Shayx ibn al-Arabiyning ta'riflariga tayanib: "**Komil inson - bir ideal, barcha dunyoviy va ilohiy bilimlarni egallagan, ruhi mutlaq ruhga tutash, fayz-u karomatdan serob, siyrat-u surati saranjom, qalbi ezgu tuyg'ularga limmo-lim pokiza zot**", – deb ta'rif beradi.

Pedagogikada barkamol shaxs tarbiyasi tarixini birinchilardan bo'lib tadqiq etgan J.Yo'ldoshev, O.Musurmonova, M. Hoshimova, S.Nishonova, S.Hasanov, S.Yo'ldosheva, rus pedagog olimi I.P.Podlasiy va boshqalarning ta'riflariga

tayangan holda **“barkamol shaxs-bu aqlan va ruhan yetuk, yuksak iste’dod va salohiyatga ega bo’lgan, ma’naviy boy, axloqan pok, jismonan sog’lom, nafosatli, jamiyatda o’zligini tanigan mustaqil fikrlaydigan, erkin, ijodkor, tashabbuskor, ishbilarmon, fidoiy shaxs”**, degan ta’rifni keltiradi.

Demak, insonning barkamol shaxs sifatida shakllanishi uchun *nasl-irsiyat (inson – biologik mavjudot sifatida), ijtimoiy muhit (ijtimoiy-iqtisodiy hayot) hamda maqsadga muvofiq tashkil etilgan tarbiya va uning faoliyati kabilar ta’sir etadi*. Shuning uchun ham pedagogik ta’lim jarayonida talaba-yoshlarning shaxs sifatida rivojlanishi, har tomonlama kamolga etishi qonuniyatlari, shaxs kamolotiga ta’sir etuvchi omillar o’rganiladi.

Talabalarni barkamol shaxs sifatida shakllantirishda quyidagi talablarga rioya etish muhimdir:


- yoshlarning bilimlarni o’zlashtirishga bo’lgan qiziqishlari va qobiliyatlarini rivojlantirish;
- ta’lim jarayonida talabalar faoliyatini pedagogik jihatdan to’g’ri tashkil etish;
- talaba-yoshlarning har biriga individual yondashish;
- pedagogik nazokatni shakllantirish;
- kasb-hunarga tayyorlash;
- murakkab vaziyatlardan to’g’ri yo’l topib chiqib keta olish qobiliyatiga ega bo’lishlariga erishish;
- ijtimoiy faollik, fuqarolik rolini shakllantirish va hokazolar.

Yuqoridagi talablarni amalga oshirish uchun barkamol shaxsni shakllantirishning quyidagi mezonlari asos bo’lib xizmat qiladi:

- shaxsni aqliy, ma’naviy-axloqiy, hissiy-estetik, jismoniy rivojlantirish;
- ijodiy imkoniyatlarini namoyon etishga yo’llash;
- insonparvarlik munosabatlarini shakllantirish;
- yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda shaxsning individual o’ziga xosligini namoyon etishga sharoit yaratish;
- fuqarolik nuqtayi nazarining tarkib topishiga erishish;
- hayotga, mehnatga, ijtimoiy ijodkorlikka tayyorlash;
- o’z-o’zini boshqarish, demokratik tamoyillarni anglash, Vatani va xalq oldida o’z mas’uliyati va burchini his etish.

Tarbiya qonuniyatiga ko’ra shaxsning kamolga etishi jamiyat rivojlanishidan orqada qolsa, ijtimoiy maqsadni amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratilmagan bo’lsa, uni amalga oshirish qiyin.

Yuqoridagilardan kelib chiqib barkamol shaxs tarbiyasining asosiy yo’nalishlari quyidagilardan iborat deb belgilashni ma’qul topdik:



Quyidagidan shu xulosaga kelamiz **barkamol shaxs individ – shaxs – inson** tizimida o'z dunyoqarashi, nuqtayi nazariga ega bo'lish, o'z haq-huquqini hurmat qilishga o'rganish, shaxslik xislatlarini tushunish, shuningdek, o'z bilim, qobiliyat va ko'nikmalarni namoyon etib, o'z **"Men"**ini qaror toptirish asosida shakllanadi.

References:

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni // O'quvchi ma'naviyatini shakllantirish. – Toshkent: "Ma'rifat-Madadkor", 2000.– 7-b.
2. O'zbekiston Respublikasining "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi // O'quvchi ma'naviyatini shakllantirish / Nashr uchun mas'ul: J.G'.Yo'ldoshev. Tuzuvchilar J.Fozilov, R.Sultonov., H.Saidov. – Toshkent: "Ma'rifat Madadkor", 2000.–46-52b.
3. Тураев С.Ж. Solution of problems on subject physics with the help of borland. Инновации в технологиях и образовании. 2018г.258-259 с
4. Turaev S.J. (2019) "Methods of using the programming language in preparing students for research activities" Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology: 2020. –P. 294-299.
5. Одилов Ё.Ж. Informatsionno-kommunikatsionniye texnologii (ikt) v obrazovanii. Ikt kompetentnost v professionalnom razvitii kadrov // Scienceweb academic papers collection. ISSUE 9. ISSN 2181-1784. Scientific Journal Impact Factor.–Тошкент.2019/1/1.436-441.
6. Одилов Ё.Ж. Methods of preparing students for professional activity on the basis of teaching physics // O'zbekiston Milliy Universiteti Xabarlari. 2022,[1/11] ISSN 2181-7324
7. Одилов Ё.Ж. Физика фанини ўқитиш асосида талабаларнинг лойиҳавий конструкторлик фаолиятини ривожлантириш. Муғаллим ҳам ўзликсиз билимлендириш. Илмий-методикалық журнал.–Нөкис. 2021й. 103-106.